



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING
Q A R O R I**

2025-yil 29-avgust

№ 2044

**O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining qayta kasbiy
tayyorlash kurslariga 2025/2026 o‘quv yili uchun
qabul kvotasini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2025 yil 29 avgustdagi xulosasiga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining qayta kasbiy tayyorlash kurslariga 2025/2026 o‘quv yili uchun qabul kvotasi **166** (bir yuz oltmish oltita) ta qilib belgilansin. Shundan:

Umumiy kvota: 142 (bir yuz qirq ikki) ta

Fuqarolik huquqi yo‘nalishi bo‘yicha:	55 (ellik besh) ta;
Jinoyat huquqi yo‘nalishi bo‘yicha:	55 (ellik besh) ta;
Iqtisodiy huquq yo‘nalishi bo‘yicha:	16 (o‘n olti) ta;
Ma‘muriy huquq yo‘nalishi bo‘yicha:	16 (o‘n olti) ta;

Qo‘shimcha kvota: 24 (yigirma to‘rt) ta

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridan hujjat taqdim qilgan talabgorlar uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha qo‘shimcha bittadan: **12** (o‘n ikki) ta;

Xotin-qizlar uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha qo‘shimcha uchtdan: **12** (o‘n ikki) ta.

2. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2025-yil 7-apreldagi 2006-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

X. Yodgorov